

## **KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI**

**Bekmurodov A.A.**

SamISI, "Bank ishi" kafedراسi assistenti

**Annotasiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashda yuzaga keladigan kamchiliklar va muammolar ularni bartaraf etishdagi tavsiya va takliflar borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bank ishi, mijoz, kichik biznes, tadbirkorlik, kichik firma, Jahon banki, bank krediti.

## **FOREIGN EXPERIENCE IN LENDING TO SMALL BUSINESS SUBJECTS BY COMMERCIAL BANKS**

**Bekmurodov A.A.**

assistant of department of "Banking", SamIES

**Annotation:** This article discusses the shortcomings and problems of lending to small business and private entrepreneurship by commercial banks and recommendations and suggestions for their elimination.

**Keywords:** banking, client, small business, entrepreneurship, small firm, World Bank, bank credit.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda.

Xalqaro amaliyotda yirik moliya muassasasi hisoblangan Jahon banki tomonidan kichik va oʻrta biznes subʼektlarini kreditlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar koʻlami yildan –yilga koʻpayib bormoqda. Ushbu ishlar natijasida jahon amaliyotida, kichik va oʻrta biznes subʼektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlardan samarali foydalanish bilan bogʻliq jihatlariga aʼlohida eʼtibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan banklar tomonidan kichik biznes subʼektlariga xizmat koʻrsatish madaniyati va bank tizimiga boʻlgan ishonchini yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan, kreditlarni ajratish boʻyicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari oʻrtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga toʻsqinlik qilayotganligi, kredit buyurtmalarini koʻrib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralayotganligi, kichik biznesni kreditlashning dolzarb muammolari yuzasidan izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani oʻrganish va uni respublika bank xizmatlari bozorida qoʻllash yuzasidan takliflar ishlab chiqish muhim omil hisoblanadi.

Bizdagi maʼlumotlatga qaraganda butun dunyo boʻylab kichik biznesni rivojlantirishga aholini ish bilan taʼminlashga juda katta eʼtibor qaritilmoqda. Xususan, 2018 yilning yanvar oyida “Jahon banki kichik va oʻrta biznes subʼektlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qariyb 4,8 mln. AQSh dollariga teng kreditlarni dunyoning 47 davlatida 61 ta loyihani moliyalashtirish uchun ajratdi”<sup>1</sup>. Kichik va oʻrta biznes subʼektlari xalqaro moliya tashkilotlari va tijorat banklari tomonidan qoʻllab-quvvatlab kelinishiga qaramay, kichik va oʻrta biznes korxonalarini yirik kompaniyalarga qaraganda koʻproq moliyaviy toʻsiqlarga duch kelmoqdalar. Xalqaro tajribalar koʻrsatishicha kichik va oʻrta biznesni kreditlashda tijorat banklari va kredit uyushmalari anʼanaviy tarzda kreditlash usullaridan foydalanib kelmoqda. Jahon banki tomonidan “45 ta

---

<sup>1</sup> <http://projects.worldbank.org>. The World Bank Data as of January 2018. маълумотлари.

davlatning 91 ta tijorat banklarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik va oʻrta biznes segmenti bank uchun foydali mijoz ekanligi maʼlum boʻldi, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda makroiqtisodiy beqarorlik va kichik biznes subʼektlarini rivojlangan mamlakatlarning kichik biznes subʼektlari bilan taqqoslaganda asosiy muammolardan biri boʻlib ularni moliyalashtirish koʻzga tashlanmoqda”<sup>2</sup>

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarini banklar tomonidan kreditlar asosida moliyaviy qoʻllab quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni asosiy yoʻnalishlaridan biri etib belgilangan. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarini kreditlashni yanada kengaytirish”<sup>3</sup> vazifasi belgilab berilgan. Xususan, banklar tomonidan kichik biznes subʼektlari faoliyatini kreditlash samaradorligini tavsiflovchi mezonlar banklarning kredit siyosatida oʻz ifodasini topmaganligi, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va oʻrta biznesni kreditlash borasida katta amaliy va boy tajriba toʻplanganligini, ushbu ilgʻor xorij tajribalarini oʻrganish, umumlashtirish va undan Oʻzbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda ularning sifat va miqdor koʻrsatkichlariga eʼtibor beriladi. Sifat koʻrsatkichlarga korxonaning boshqaruv tizimining soddaligi, bozordagi ulushiga ega boʻlishi kabi koʻrsatkichlar kirsam, koʻp tarqalgan miqdor koʻrsatkichlariga esa korxonada ishlovchilar soni, asosiy mablagʻlar qiymati, mahsulot sotish hajmi kabi koʻrsatkichlar kiradi. Aynan shu ishchilar soniga qarab aniqlashda ham turli xilma-xillik mavjud. Masalan, Yaponiya va Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida

---

<sup>2</sup> Beck, Demirgüç-Kunt and Maksimovic 2008, Banking Services for Everyone? Barriers to Bank Access and Use around the World, the World Bank Economic Review. [www.doingbusiness.org](http://www.doingbusiness.org)

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – 32-б.

300 kishigacha, AQSh va Italiyada 500 kishigacha, Tailand va Singapurda 50 kishigacha ishlovchisi bo‘lgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta korxonalar sektori “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” deb ifodalanadi.

Kichik biznes sub’ektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tasniflanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tasniflash tizimiga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 275-sonli Qarori bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta “Xodimlar soni” mezonini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda “o‘rta biznes” segmenti mavjud emas.



**1.1-рasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ifodalanishi<sup>4</sup>**

Xalqaro amaliyot o‘rganilganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni aniqlash mezonlari o‘rganilganda ular qisman mos kelmasligi ma’lum bo‘ldi.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 24 августдаги 275-сонли Қарори асосида тайёрланди.

Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tajribasi o'rganilganda, turli mamlakatlarda bu sohani takomillashtirish borasida turlicha mexanizmlar qo'llanilganligi va qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlarida "bir darcha" tamoyilidan keng foydalaniladi. Fransiyada esa Biznes-rasmiyatchiliklar bo'yicha markazlar tarmog'i bo'lib, mazkur Markazlar ruxsatnomalar berish borasida vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan talablarga ko'ra tadbirkorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ma'lumotlar taqdim etib boradi. Hozirda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlarida ruxsat berish bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada qisqartirish bo'yicha maxsus ko'rsatma qabul qilingan.

Shu bilan bir qatorda, sohada axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, "on-line" rejimi orqali hujjatlarni elektron tarzda taqdim etishni joriy qilish va hujjatlarni faqat sud qaroriga asosan chaqirib olish tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. Xitoy, Bolgariya, Kolumbiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Moldova, Xorvatiya kabi mamlakatlar bu borada o'ziga xos yo'l tutganliklarini ham aytib o'tish lozim<sup>5</sup>. Bu mamlakatlarda juda qisqa vaqt mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochilganligi, xususan ruxsat berish tartib-tamoyillari soddalashtirilganligi va qisqartirilganligi natijasida biznesni tashkil qilishga ketadigan xarajatlar hamda vaqt tejilishi hisobiga investitsiyalarning kirib kelishi osonlashgan. Ayniqsa, hujjatlarni "bir darcha" orqali taqdim etish prinsipi asosida ishni tashkil qilish sezilarli ravishda ijobiy natija bergan.

Birgina misol bugungi kunda Niderlandiyada tadbirkorlik sohasidagi g'ov va to'siqlarni bartaraf qilish, ruxsat berish tartibotining qisqartirilishi va soddalashtirilishi tufayli har yili 2 mlrd. AQSh dollari miqdorida davlat mablag'lari iqtisod qilinayotganligi<sup>6</sup> yaxshi natijadir.

---

<sup>5</sup> Ўзбекистонда амалга оширилаётган сиёсий-ҳуқуқий ва ижтимоий- иқтисодий жараёнлар. Мақолалар тўплами. –Тошкент, ЮМОМ, 2016. – 140 б.

<sup>6</sup> [www.worldbank.uz](http://www.worldbank.uz) мълумотлари асосида тайёрланди.

Maqolani bajarish jarayonida kichik biznesni kreditlash bo'yicha xorij tajribasi asosida takomillashtirish bo'yicha xulosalar shakllantirildi:

1. Ilg'or xorij tajribasida ko'rilganidek, banklar muvaffaqiyatiga erishishi uchun birinchi navbatda o'zlarining eng qimmatbaho "aktivi" – bu o'z mijozlari deb qarashlari lozim va mijozlar bilan o'zaro munosabatlar tizimini sifatli darajada o'zgartirish mijozlar bilan ishlashning yangi ideologik ish uslubini shakllantirish, har bir mijozga individual yondashgan holda standart texnologiyalarga asoslangan yangi ish uslubini o'rnatishi lozimligi ma'lum bo'ldi.

2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik YaIMda yuqori ulushga ega bo'lishi bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kredit portfelida 7,9 foiz ulushga ega bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda ortda qolmoqda.

Ilg'or xorij tajribasida kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda, kichik biznes sub'ektlari o'rtasida maxsus so'rovnomalar o'tkazilishi va uning natijasida aniqlangan kamchiliklar asosida kelgusi kreditlash jarayonini tashkil etishni O'zbekiston amaliyotida qo'llash yetarlicha samara berishi ma'lum bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – T.: "O'zbekiston", 2000 y. 15 iyun. 51 modda. <http://lex.uz/docs/31846> 8-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2746-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 23 martdagi PQ 3620 sonli Qarori.

4. Alimardonov I.M. “Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish” Dok. diss. avtoref. Toshkent 2018 y. 18-bet.

5. Rustamov M. ECONOMETRIC ANALYSIS OF MACROECONOMIC INDICATORS AND SMALL BUSINESS LOANS //International Finance and Accounting. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – S. 5.

6. Togayev S., Ergashev J. PECULIARITIES OF ORGANIZATIONAL STRATEGY FORMATION //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 459-464.

7. Bekmurodov A. A. IMPROVING THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – S. 355-357.

Karimova A. Sovershenstvovaniye bankovskogo kreditovaniya innovatsionnogo razvitiya predpriyatiy sfery turizma //Ekonomika i obrazovaniye. – 2021. – №. 4. – S. 59-65.

7. Bekmurodov A. THE IMPACT OF TRANSFORMATION PROCESSES ON THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS //Archive of Conferences. – 2021. – S. 52-54.

8. Malikova D. METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2023. – S. 96-98.

9. Ziyadullayevich X. H. Analysis of Financial Stability of Commercial Banks and Influenced Factors //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – S. 239-241.